

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Каримов Философия калама –рациональная основа средневекового исламского мировоззрения.....	203
D.E.Normatova Islom islohchiligi (modernizm): diniy-falsafiy va siyosiy jihatlar.....	210
B.E.Xusanov Estetik tarbiya mohiyatining falsafiy tahlili.....	215
N.M.Axmadiyev Yoshlarning axloqiy, ma’rifiy, madaniy tafakkurini yuksaltirishda keksa avlod tajribasidan foydalanishning ahamiyati.....	220
N.N.Teshayev Fuqarolik jamiyati rivojlanishining ijtimoiy-madaniy omillari	223
K.G’.Kamolova Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida falsafaning o’rni	227
M.M.Qaxxorova, B.Farfiev Oila instituti mustahkamligining ijtimoiy-madaniy asoslari.....	232
K.U.Sharipova Jamiyatda gender tenglikning shakllanish jarayoni.....	240
S.A.Xayrullayev Jamiyat barqarorligida konsolidatsiya jarayonining konseptual asoslari.....	244
O’.X.Rajabov Maslahat – konsensusning sinergetik omili	248
Sh.T.Abbosova Milliy g’oya –insoniyatni barqaror taraqqiyot sari yetaklovchi kuch	251

SIYOSAT

K.X.Avazov Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati.....	254
A.A.Abdilxamedov Huquqbuzarlik profilaktikasi tushunchasining mazmun-mohiyati va xususiyati.....	261
B.Y.Paluaniyazov Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligiga ta’sir etuvchi tahdidlarning namoyon bo’lish xususiyatlari.....	265
U.M.Kuranov Globallashuv sharoitida missionerlikka qarshi kurashning ma’naviy – ma’rifiy ahamiyati	270

ТАРИХ

Ma Jian, Vang Jianxin, M.Xasanov, Chen Aidong, Chjou Xinying, A.E.Berdimurodov, K.D.Arziyev O’zbekistonning Samarqand vodiysi janubiy tomonidagi 2014-yilgi arxeologik dala qidiruv ishlari hisoboti.....	275
M.X.Исамиддинов Оборонительные стены Афрасиаба и основные этапы его развития.....	309
X.Raxmatillayev Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidagi etnik jarayonlar	314
F.X.Utayeva, P.Q.Sharipova, F.G’.Rahmatova Mustaqillik yillarida Buxoro to’qimachilik sanoatida modernizatsiyalashuv jarayonlari	318
N.S.Abdullayeva Rossiya muzeylarida saqlanayotgan O’zbekiston madaniy merosi namunalari.....	324
S.B.Xakimova “Xulosat ul-ahvol” asari xususida.....	329
Ш.Т.Темиров Мухаммад Сиддик Хашмат, сын Эмира Музаффар (1864-1932) – жизнь и научное наследие	332

“XULOSAT UL-AHVOL” ASARI XUSUSIDA
О ПРОИЗВЕДЕНИИ "ХУЛОШАТ УЛЬ-АХВАЛ"
ABOUT THE WORK "HULOSHAT AL-AHWAL"

Xakimova Saida Baxtiyorovna¹

¹Farg‘ona davlat universiteti, Jahon tarixi kafedrasida katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qo‘qon xonligida yashagan tarixchi Abu Ubaydullohning “Xulosat ul-ahvol” asari memuar manba sifatida talqin etilgan. Asardagi asosan muallifning zakotchi kasbi bilan bog‘liq va ayni damda xonlik ijtimoiy-siyosiy hayotining ba‘zi jabhalarini yoritib beruvchi ma‘lumotlar tahlil doirasiga tortilgan.

Аннотация

В данной статье интерпретируется как мемуарный источник труд историка Абу Убайдуллаха, жившего в Кокандском ханстве, «Хулосат уль-ахвол». В основном к анализу привлечена информация из произведения, связанная с должностью автора как сборщика податей и освещающая некоторые стороны общественно-политической жизни ханства.

Abstract

This article interprets the work of the historian Abu Ubaydullah, who lived in the Kokand Khanate, “Khulosat ul-ahwol” as a memoir source. Basically, the analysis involved information from the work related to the author’s position as a tax collector and illuminating some aspects of the socio-political life of the Khanate.

Kalit so‘zlar: Abu Ubaydulloh, “Xulosat ul-ahvol”, Toshkent, Qo‘qon xonligi, zakotchi, parvonachi, memuar manba.

Ключевые слова: Абу Убайдуллах, «Хулосат уль-ахвол», Ташкент, Кокандское ханство, закятчи, парвоначи, мемуарный источник.

Key words: Abu Ubaydullah, “Khulosat ul-akhvol”, Tashkent, Kokand Khanate, zakatchi, parvonachi, memoir source.

KIRISH

Qo‘qon xonligi tarixiga oid memuar manbalar orasida Abu Ubaydulloh Muhammad Sultonxo‘ja o‘g‘li qalamiga mansub “Xulosat ul-ahvol” asari alohida o‘ringa ega. Mazkur asar fors-tojik tilida yozilgan bo‘lib, uning yagona qo‘lyozma nusxasi O‘zR FA Sharq qo‘lyozmalari markazida 2084 raqami ostida saqlanadi va 240 varaqdan iborat. Muallifning so‘zi bilan aytganda, u asarni “60 yoshdan o‘tgach” yoza boshlagan. Asar hijriy 1282, milodiy 1865–1866- yillarda Toshkentda yozilgan. Asar muqaddima, to‘rt fasl va xotimadan iborat [9: 205-206].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bu asarni ilk bor tarix fanlari doktori A.O‘rinboyev tadqiq eta boshlagan va asar haqidagi fikrlarini o‘z maqolasida e‘lon qilgan [10]. Shuningdek, asar haqidagi tavsifiy ma‘lumotlar “Собрание восточных рукописей АН РУ” nomli to‘plamda keltirilgan [8]. T.Muhitdinov “Abu Ubaydulloh Toshkandiyning “Xulosat ul-ahvol” asari haqida” nomli maqolasida mazkur asarda bayon etilgan voqealar tahliliga to‘xtalib o‘tgan [7]. Asar muallifining hayoti va faoliyatiga bog‘liq tafsilotlar hamda kitobda aks etgan tarixiy ma‘lumotlarning ancha batafsil tahlilini Sh.Vohidovning “Qo‘qon xonligida tarixnavislik:(genezisi, funksiyalari, namoyandalari, asarlari)” monografiyasida uchratish mumkin.

Maqolada tarixiylik tamoyiliga amal qilgan holda qiyosiy va kontent tahlil usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Asar avtobiografik xarakterga ega bo‘lgani bois unda berilgan ma‘lumotlar ishonarliligi bilan ajralib turadi. Asardagi voqealar muallifning hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa-da, Abu Ubaydullohning 1835–1860-yillarda Toshkent zakotxonasida mirzo bo‘lib ishlaganini inobatga olsak, u Toshkent hokimligida, qolaversa, Qo‘qon xonligida bo‘lib o‘tgan talay siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy voqealardan xabardor bo‘lgan va asarda o‘z hayoti bilan bog‘liq hodisalardan tashqari ularni ham keltiradi. Shu sababli mazkur asar manbaviy jihatdan katta ahamiyatga egadir.

Asar muallifining shaxsiga to'xtaladigan bo'lsak, Abu Ubaydulloh o'zi haqida bergan ma'lumotlardan kelib chiqib, u 1804/1805-yili tug'ilgan, deb xulosa qilish mumkin [3: 166]. Lekin T.Muhitdinov muallifning Olimxon Qo'qon taxtiga endi o'tirgan vaqtda 5 yoshda edim, deb yozganidan kelib chiqib, Abu Ubaydullohning tug'ilgan yilini 1795-yilga nisbat beradi [7]. Fikrimizcha, ushbu xulosa xato bo'lib, Abu Ubaydulloh Jahongirxo'janing "fitna ko'tarishi" vaqtida 18 yoshda, Rusiya qo'shini tomonidan Toshkentni bosib olish vaqtida umri 60 yoshdan o'tayotganini yozganini e'tiborga olsak [3: 166], uning taxminan 1804/05-yilda tug'ilgani haqidagi fikr asoslidir. U otasidan erta ajralib, onasi tarbiyasida qoladi. 18-19 yoshida Abu Ubaydulloh ilm olish uchun Qo'qonga boradi. U Mullo Holmuhammad Quramagiy darslariga qatnashib saboq olgan. Ayni vaqtda, qori Domullo G'oziy Shermuhammaddan, shuningdek, Xishtin madrasasining imomi va mutavallisi Hoji Abduvalixon hamda Madalixonning vaziri Hoji Dadajondan ham ta'lim oladi. So'ngra Toshkentga qaytib Hakim devonbegi xizmatiga mirza bo'lib kiradi [4: 33]. Abu Ubaydulloh Lashkar beklarbegi, Mullo Xolbek, Normuhammad qo'shbegi, Shodmonxo'ja, O'tabboq qo'shbegilar davrida shu lavozimda ishlagan [9: 65]. Shu sababli muallifning, ayniqsa, viloyatdagi zakot ishlari haqidagi ma'lumotlari alohida ahamiyatga ega. Muallifning o'zi ham bir vaqt zakot yig'ish ishlariga mas'ul Hakim devonbegiga yordamchi bo'lib ishlagan [6: 22].

Asarda soliqlarning yig'ilishi bilan bog'liq qo'zg'olon tafsilotlari keltiriladi. Xudoyberdi devonbegi xiroj va zakot yig'ib olishga mutasaddi bo'lgan, asosan qozoqlar yashaydigan hududlarda aholi soliqlarning og'irligidan norozi bo'lib, XIX asrning 40-yillarida bosh ko'taradi. Natijada olomon Xudoyberdi devonbegini o'ldiradi. Toshkent hokimi Lashkar qo'shbegi isyonchilarni jazolash maqsadida ularga qarshi qo'shin tortadi, lekin qozoqlar dashtlarga ko'chib ketgani bois ularni qo'lga tushirish imkoni bo'lmaydi [2: 5-6]. Bunday holat o'sha davrda aholi soliq yukidan ezilgani hamda qozoqlarni boshqarish ancha mushkul kechganligidan dalolat beradi.

Abu Ubaydulloh hokimlar va soliq yig'uvchilarning xalqqa nisbatan o'tkazgan zulmini yana bir voqeada aks ettiradi. 1853–1857-yillarda Toshkent hokimi bo'lgan Mirzo Ahmad zakotlarni to'rt barobar ko'p oladigan bo'ladi. Ko'chmanchilarni esa doim borib yurgan yaylov va qishloqlariga qo'ymasdan ularga boshqa yerlarga borishni buyuradi. Bunday chora, albatta, qo'shimcha pul ta'ma qilishning bir usuli bo'lgan. Masalan, Avliyoota atrofidagi qozoq qabilalariga Chimkent tomonga ko'chib borishni buyuradi. Natijada jamoa o'z yerida qolishga ruxsat olish uchun 4 ming tillo yig'ib, Mirzo Ahmadning yaqinlari orqali bu masalani hal etadi [1: 162^a]. Mirzo Ahmadga qarshi xalq noroziligi oshib borganidan zakotchilar soliq yig'ishga katta qo'shin bilan chiqadigan bo'ladi. 1857-yilda Abu Ubaydullohning o'zi ham Avliyoota atrofidagi aholidan soliq yig'ishga borganda Mirzo Ahmad nomidan to'rt nafar yasovul kelib, zo'ravonlik bilan qo'shimcha soliq yig'ib olishadi. Shu sababdan, bir kuni aholi qo'zg'olon ko'tarib, barcha zakotchilarni tutib olib, har birini alohida bir ovulga garov sifatida olib borishadi. Ushbu qo'zg'olonga Xudoybergan ibn Boyit bahodir bosh bo'lgan [1:165^a]. Oxir-oqibat Mirzo Ahmadning bunday siyosatidan Dashti Qipchoq aholisi norozi bo'lib, qo'zg'olon ko'tarib, hatto "bunday musulmon hokimdan kofirlar yaxshi", deb har yili ruslarni bir manzil Qo'qon xonligi tomon olib keladi [1:167^a]. Ko'rinib turganidek, Toshkent hokimlarining o'z itoatidagi ko'chmanchilarga zulm o'tkazishi ularni Qo'qon xonligiga qarshi qila borgan va dushmanlar bundan ustomonlik bilan foydalangan.

"Xulosat ul-ahvol" asarida Toshkent mulklarining chegaralari ham berilgan. Xususan, viloyat chegaralarini sharqda Ko'ksuv, Qoratol va Qafolgacha, g'arbda Qoratepa, Chimkentdan to Rahim qal'asigacha to'rt oylik yo'l, janubdan Toshkentdan ikki oylik yo'l bilan belgilaydi [9: 59]. Toshkent mulkining shimoliy chegarasi ko'chmanchi qozoqlar yashaydigan dashtlarda bo'lgani sabab u muqim bo'lmagan va shu boisdan muallif bu haqida aniq ma'lumot bermagan, deb taxmin qilamiz.

Shuningdek, asarda Toshkent viloyatining ma'muriy boshqaruvi, Toshkent hokimlarining almashishi bilan bog'liq bo'lgan siyosiy voqealar ham aks ettirilgan.

Jumladan, muallif tomonidan alohida xayrixohlik bildirilgan hokim – Lashkar qo'shbegining Muhammad Alixon tomonidan mansabidan olinib, Marg'ilonga hokim qilib jo'natilishi, 1842-yilda esa viloyatda tartibsizliklar to'xtamagach, uning qaytadan Toshkent voliyiligiga tayinlanishi va Qo'qonga bo'ysunmay qo'ygan qozoqlarga qarshi qo'shin tortib, Pishkek qal'asi hokimi Yodgorbek yordamida ko'chmanchilar oqsoqollari bilan bitim tuzib, ularni Toshkent itoatiga kirgizishi bayon etilgan [1: 82^a – 87^a]. Aytish kerakki, ko'p holatda Toshkent hokimlarining almashishi turli fitnalarni va ig'volar bilan bog'liq bo'lgan.

TARIX

Asarda Toshkent Qo'qon xonligi tarkibiga kiritilishidan to XIX asrning 60-yillarigacha bo'lgan davrda hokimlik qilgan shaxslar haqida ma'lumotlar uchraydi. Bu mavzuni alohida o'rgangan O'.Sultonov asarda 27 ta hokim nomi berilganini aniqlagan [9: 59]. Shu bilan birgalikda, asarda o'sha davr mansablari haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Masalan, hokimlar tayinlanishi haqida gap ketganda, valiylarning o'z boturboshisi bilan kelishi yozilgan. Bundan tashqari, asarda parvonachi, qo'shbegi, beklarbegi, mingboshi, otaliq kabi lavozimlar tilga olinib, ularning egalari bajargan ishlarga ko'ra bu mansablarning o'sha davrdagi vakolat doirasini bilib olish mumkin bo'ladi.

Abu Ubaydullohning asari Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi ba'zi obrazlarning prototiplari haqida ham ma'lumot beradi. Ma'lumki, romanda Aziz parvonachi voqeasi va Toshkentdagi 1847-yilda sodir bo'lgan qo'zg'olon badiiy talqinda bayon etilgan. Bu romanda tarixiy bir muayyan davr aks ettirilgan bo'lib, u 1846-yildan 1860-yilgacha davom etadi. 1846-yil Aziz parvonachining Toshkentga valiy bo'lib kelishi, 1860-yil esa asar qahramoni Otabekning do'sti usta Mo'min bilan Avliyoota shahri himoyasida qurbon bo'lishlari sanasidir [5: 200]. Abu Ubaydulloh ma'lumotiga qaraganda [1: 103^a-107^a], asarning yana bir qahramoni Yusufbek hojining asl nomi Muhammad Yusufbek bo'lgan. U "O'tkan kunlar" asarida tasvir etilganidek Aziz parvonachiga emas, balki undan keyin Toshkentga hokim bo'lib kelgan Normuhammad qo'shbegiga vazir va dabir (kotib) bo'lgan. Azizbek parvonachi Chust viloyatidan bo'lib, bir yarim yil Toshkentda hokimlik qiladi. Abu Ubaydulloh Aziz parvonachini "bachcha" va "ba'zi avboshlarga mahram edi", deb unga nafratini bayon qiladi. U Toshkent qo'zg'olonidan so'ng mansab va vazifasidan olinib, o'rniga Kirovuchi hokimi Normuhammad valiy bo'ldi. Aziz parvonachi vazifasidan olinishida katta xizmat qilib, xalqqa bosh bo'lgan Muhammadyusuf Normuhammadga vazir va dabir bo'ladi. Bu vazir Abu Ubaydullohni qayta zakotxonaga mirzo etib tayinlaydi. Abu Ubaydulloh esdaliklariga qaraganda, Muhammadyusuf Oqmasjid jangi va mudofaasida ham qatnashib, Qosim mingboshi, So'fibek dodxohlarga ham dabirlik qilgan ekan [5: 201].

XULOSA

"Xulosat ul-ahvol" asarida mavjud yuqorida keltirilgan tafsilotlar ko'p manbalarda uchramaydi. Shuning uchun ham o'zining original ma'lumotlarga boyligi sababli Abu Ubaydullohning mazkur asari manbashunoslik nuqtai nazaridan juda qimmatlidir va Qo'qon tarixnavislik maktabi namoyandalarining memuar xarakterdagi asarlari orasida alohida o'ringa ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abu Ubaydulloh. Xulosat ul-ahvol. O'zR FA Sharq qo'lyozmalari markazi. №2084.
2. Воҳидов Ш.Х. Тошкент тарихчилари. – Т., 1996. – 34 б.
3. Воҳидов Ш.Х. XIX аср охири – XX аср бошларида Қўқон хонлигида тарихнависликнинг ривожланиши. Тарих фанлари доктори ...дисс. – Т., 1998. – 305 б.
4. Воҳидов Ш., Холиқова Р. Абу Убайдуллоҳ Тошкандий. "Хулосат ул-аҳвол" // Moziydan sado. – 2009. – №2. – Б. 33-35.
5. Воҳидов Ш.Х. Қўқон хонлигида тарихнавислик:(генезиси, функциялари, намояндалари, асарлари). – Т.: Akademnashr, 2010. – 320 б.
6. Маҳмудов Ш.Ю. Қўқон хонлигининг маъмурий бошқарув тизими (1709- 1876) : Тарих фанлари номзоди... дисс. – Т., 2007. – 165 б.
7. Муҳитдинов Т. Абу Убайдуллоҳ Тошкандийнинг "Хулосат ул-аҳвол" асари ҳақида // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – 2009. – №1. – Б. 94-96.
8. Собрание восточных рукописей АН РУ. – Т.: Фан, 1998. – 568 б.
9. Султонов Ў. Тошкент Қўқон хонлиги таркибида ("Тарихи жадидаи Тошканд" ва "Хулосат ул-аҳвол" асарларидаги маълумотлар таҳлили // O'zbekiston tarixi. – 2007. – №2. – Б. 57-67.
10. Урунбаев А. Неизвестная рукопись по истории Кокандского ханства // Известия АН УзССР. – 1957. – №3. – С. 33-38.
11. Khakimova S.B. (2023). Memoirs as a Source of Historical Research. Eurasian Journal of History, Geography and Economics, 19, 60-63.
12. Khakimova, S. «History of the Kokand khanate in the work "Tarihi Alikuli amirlashkar"». Interpretation and Researches, т. 1, вып. 1, июнь 2023 г., <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1205>.